

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich

О‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish.....3

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich

Improving the organizational and legal mechanism of the activities of non-governmental non-profit organizations in Uzbekistan.....35

Нариманов Бекзод Абдувалиевич

Совершенствование организационно-правового механизма деятельности негосударственных некоммерческих организаций в Узбекистане.....67

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....72

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Yu189-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xakimov Raxim Rasuljonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailova Gulnoza Saydiganixodjayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich
yuridik fanlar doktori, professor

Nematov Jo‘rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02-raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 5-avgustda soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1153-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “21”-iyulda tarqatildi.

(2023-yil “21” iyuldagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

X.S.Xayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yuridik fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat va davlatni bir-biriga bog'lovchi ko'prik sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, "ezgu boshqaruv" konsepsiyasini amalga oshirish, kambag'allikka qarshi kurash, BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta BRM va ularga bog'liq bo'lgan 169 vazifalarni bajarishda davlatga asosiy sherik sifatida belgilangan¹. Rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotdagi ulush o'rtacha 10-14 foizi, ish bilan band aholining o'rtacha 10 foizi "nodavlat sektor"ga to'g'ri kelmoqda². Bundan tashqari, bugungi kunda dunyoning turli nuqtalarida davom etayotgan geosiyosiy mojarolar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy zararining ko'lami II jahon urushiga qiyoslangan COVID-19 postpandemiya sharoiti nodavlat sektor" salohiyati va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zaruratini yana oshirmoqda. Yuqorida keltirilgan omillar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yanada samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda nodavlat notijorat tashkilotlariga o'zini o'zi tartibga solish huquqini berish, raqamlashtirish sharoitida insonlarning uyushish huquqini amalga oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, raqamli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlari va salohiyatidan oqilona foydalanish yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining "uchinchi sektor"dagi maqomini aniqlash, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilikning ishtirokini yanada kengaytirish, sohaga "aqlli boshqaruv" konsepsiyalarini joriy qilish masalalariga ham ilmiy, ham amaliy xarakterga ega muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" ulug'vor g'oyasining hayotda aks etishida fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirokini ta'minlash, fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, "xalq diplomatiyasi" instituti orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jumladan mamlakatimizning nufuzli xalqaro reytinglarda egallagan o'rnini yaxshilashda nodavlat sektorning salohiyatidan unumli foydalanish, ularga xalqaro munosabatlarda faol bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining mustaqilligini ta'minlash maqsadida davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashmaslik prinsipining amalda ta'minlanishi bo'yicha muayyan tashkiliy va huquqiy choralar ko'rilmogda.

"Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish, ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati subyektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o'rganishda ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni

¹ <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>

² <https://www.standardizations.org/bulletin/?p=841>

ochiq muhokama qilish amaliyotini yoʻlga qoʻyish ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qoʻllab-quvvatlash hajmini ikki barobarga oshirish”³ masalalari ustuvor vazifa etib belgilangan.

Shu bois, nodavlat notijorat tashkilotlari fenomenining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini tadqiq etish, ularning faoliyatiga oid mexanizmlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish asnosida “uchinchi sektor” faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish va bu boradagi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Soʻnggi yillarda yurtimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning ijtimoiy, madaniy, maʼrifiy va ilmiy maqsadlarini amalga oshirishdagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Bundan tashqari, “nodavlat sektor” fuqarolarning sogʻligʻini himoya qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolarning maʼnaviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan loyihalar koʻpayib bormoqda.

Alohida eʼtirof etish lozimki, 2023-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham nodavlat notijorat tashkilotlari institutining huquqiy maqomi konstitutsiya darajasida belgilandi. Konstitutsiyaning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlanib, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga oid davlatning majburiyatlari belgilandi⁴. Yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish sharoitida shu kabi ilmiy tadqiqot ishlari juda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi Farmoni bilan 2021-2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi qarori bilan mazkur konsepsiyani 2023 va 2024-yillarda amalga oshirish uchun chora-tadbirlari belgilandi⁵.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini qoʻllab-quvvatlash borasida davlat byudjetidan 117 milliard soʻm miqdordagi mablagʻlar ajratilgan boʻlsa⁶, 2023-yilning oʻzida 250 milliard ajratilishi rejalashtirilgan⁷.

Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga jalb qilishning gʻoyaviy

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” Farmoni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

⁴ “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi // URL: <https://meningkonstitutsiyam.uz/uzc>

⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁶ 2021 — 2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2021-yil 4-mart, PF-6181-son. URL: <https://lex.uz/docs/5319756>

⁷ Oliy Majlis milliardlari qanday sarflanmoqda. // URL: <https://rost24.uz/uz/news/1410>

asoslari belgilangan. Strategiyaning 1, 11, 12, 20, 83, 84-maqсадlari bevosita yoki bilvosita mazkur mavzuga bag‘ishlangan.

Tegishli maqsadlar samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni tizimli takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini faolligini oshirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksaltirish orqali qonun ustuvorligini ta‘minlash, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan fuqarolar va jamoatchilikning murosasiz munosabatini shakllantirish masalalarini qamrab olgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning alohida bo‘linmalari soni 8 922 tani tani (2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 9 140 ta, 2020-yil 1-yanvar holatiga 10 502 ta, 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 9 860 ta) tashkil qilib, shundan 600 tasi Adliya vazirligi hamda 8 560 tasi hududiy adliya organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan⁸.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi (2018), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017), “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5980-son (2020), 2021 — 2025-yillarda “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son (2021) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2019), “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2085-son (2013), “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5012-son (2021) qarorlar va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁹.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Michigan State University, Fordham University, Stanford University, Johns Hopkins University (AQSH), Cambridge University, International Institute for Environment and Development (Buyuk Britaniya), French Centre for Research (Fransiya), the University of Kiel (Germaniya), Australian National University (Avstraliya), University of Delhi

⁸ https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-8-922-ta-nodavlat-notizhorat-tashkiloti-bor_443142

⁹Qarang: <https://msu.edu/>, <https://www.iied.org/>, <https://www.cam.ac.uk/>,
<https://www.jstor.org/stable/25659211>, <https://www.westlaw.com/>, <https://www.jhu.edu/>,
<https://www.princeton.edu/>, <https://umich.edu/>, www.cambridge.org, <https://www.ox.ac.uk/>,
<https://www.manchester.ac.uk/>, <https://www.queensu.ca/>, <https://www.uni-mannheim.de/>, <https://www.usc.gal/en>,
nyuscholars.nyu.edu, www.jstor.org, <https://heionline.org/>, www.scp.politicaldata.edu, diposit.ub.edu,
www.recercat.cat, www.urvak.ru va boshqa manbalar.

(Hindiston), University of Oxford, University of Manchester va Queen's University (Buyuk Britaniya), University of Mannheim (Germaniya), Santiago de Compostela University (Spain), Butunrossiya davlat adliya universiteti (Rossiya) hamda Buxarest universiteti (Ruminiya)da olib borilmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish masalalari bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: Inson huquqlari himoyachisi bo'lgan NNTlari faoliyatining samaradorligini baholash tadqiq etilgan (Michigan State University); rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni Jahon banki tomonidan o'rganilib, uslubiy tavsiyalar asoslantirilgan (Fordham University), COVID-19 pandemiyasi sharoitida NNTning roli, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya, inson huquqlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarda NNT faoliyatining turli jihatlari tahlil qilingan (Stanford University); Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati/NNT sektorining o'rni aniqlangan, xalqaro ekologiyaga oid xalqaro darajadagi qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki tahlil qilingan (Cambridge University); davlat ahamiyatiga oid dasturlar ishlab chiqishda NNT vakillari ishtirokining shakllari va uslublari asoslantirilgan (International Institute for Environment and Development); Hukumat - NNT munosabatlarining evolyutsiyasi asosida NNTlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati asosida davlat tomonidan kuch, mablag' va resurslarning ortiqcha sarflanishining oldini olishi asoslantirilgan (Fransiya tadqiqot markazi); globalizatsiya davrida ayrim funksiyalar internatsional xususiyatga ega bo'lib borayotganligidan kelib chiqib, davlat, xususiy va uchinchi sektori o'rtasidagi o'zaro funksiyalar taqsimoti, qayerda davlat funksiyalarining chegarasi tugab, NNT sektori funksiyalari boshlanishi kerak, davlat instituti o'zining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatiga ko'ra, qaysi yo'nalishlarga mas'ul bo'lishi va qaysi yo'nalishlarga "uchinchi sektor" mas'ul bo'lishi maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan (the University of Kiel); "Ezgu boshqaruv" konsepsiyasi asosida "The Comparative Nonprofit Sector Project" loyihasi doirasida aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda nodavlat sektorni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilib, fuqarolik jamiyati va nodavlat sektorining turli yo'nalishlari bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan (Johns Hopkins University), NNT eng katta ish beruvchilardan biri sifatida mehnat munosabatlarida xodimlarning mehnat huquqlarini ta'minlashiga oid muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan (University of Delhi).

Dunyoda NNT faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmiga oid turli tadqiqotlar olib borilmoqda: fuqarolarning uyushish huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil etish, uchta sektor (davlat, xususiy va "uchinchi sektor")ning funksional tahlilini amalga oshirish; NNTning fuqarolik jamiyatini qurish, jamiyat va davlat boshqaruvida tutgan o'rni, davlatning ayrim funksiyalarini o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari misolida nodavlat sektorga berish; yuridik shaxslar (tadbirkorlik subyektlari) manfaatida tuzilgan NNTning huquqiy maqomini belgilash, NNTning mol-mulki va moliyaviy manbalarining huquqiy asoslarini takomillashtirish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda NNT faolligini oshirish; ijtimoiy va davlat ahamiyatiga molik loyihalarni amalga oshirishda nodavlat

notijorat tashkilotlari ishtirokini kengaytirish; raqamli komyunitilar salohiyatidan ijtimoiy foydali loyihalarga yo‘naltirish; raqamli huquqlarning rivojlanish sharoitida NNT faoliyatini takomillashtirish.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishi” doirasida tayyorlangan bo‘lib, dissertatsiya “12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi” ixtisosligiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solishning konstitutsiyaviy huquqiy va ma’muriy huquqiy masalalari F.X.Otaxonov, R.R.Xakimov, Sh.U.Yakubov, I.R.Bekov, Sh.N.Nazarov, D.R.Xolmonova, L.B.Xvan, J.Ne‘matov, B.I.Latipov, V.H.Davlyatov, N.Sadikov, L.Kotovalar tomonidan, fuqarolik jamiyati institutlari, ularning nazariy-huquqiy asoslari X.T.Odilqoriyev, A.X.Saidov, S.M.Adilxodjayeva, H.B.Boboyev, Ya.Ollamov, O.T.Husanov, Sh.I.Jalilov, Z.M.Islomov, X.Mamatov, B.I.Ismoilov, F.X.Raximov, E.O.Qodirov, A.A.To‘laganovlar¹⁰ tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan L.Solomon, T.Morris-Suzuki, T.R.Devis, M.M.Cernea, T.Tvedt, V.Tessyur, T.D.Matveeva, D.K.Ospanova, O.Ye.Kalinina, M.T.Ford, O.R.Abramova, V.M.Kameneva, Ye.G.Tarxanova, D.Lyuis, J.Bostok, X.Teyxer, X.Liang, J.Yoaxim, D.Billis, P.Avasti, X.Anxayer, S.Topler, N.Bourjaily va boshqalarning tadqiqot ishlarida nohukumat notijorat tashkilotlari va “uchinchi sektor”ning jamiyat hayotidagi o‘rni, zamonaviy tendensiyalari, volontyorlik harakatlari, ushbu tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy asoslariga oid rivojlangan davlatlar tajribasi tadqiq qilingan¹¹.

Garchand ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmi bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy jihatlar u yoki bu darajada tadqiq qilingan bo‘lsa-da, konstitutsiyaviy va ma’muriy huquq nuqtayi nazaridan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi va xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini takomillashtirish masalalari yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

O‘tgan yillarda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog‘liq munosabatlarning serqirra ekanligi, shuningdek, ushbu sohada turli ishlanmalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq kuzatuv va o‘rganishlar davomida dastlab bildirilgan fikr-mulohazalar yanada takomiliga yetdi va mazkur tadqiqot ishi tayyorlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

¹⁰ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

¹¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi, mohiyati va konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini tahlil qilish;

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari evolyutsiyasi va rivojlanishi tendensiyalarini tadqiq etish;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati: huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;

nodavlat notijorat tashkilotini ta’ sis etishning huquqiy jihatlarini o‘rganish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini aniqlash;

nodavlat notijorat tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni huquqiy tartibga solishni o‘rganish;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishni huquqiy tartibga solishni tadqiq etish;

nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini moliyaviy ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish;

nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini to‘xtatish va tugatishning huquqiy tartib-taomillarini tadqiq etish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishni tahlil qilish;

mamlakatda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faolligini yuksaltirishning innovatsion usullarini tadqiq qilish;

Nodavlat notijorat tashkilotlari orqali o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari ilgari surish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq dolzarb tashkiliy-huquqiy muammolar, shuningdek, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuv, ilmiy-nazariy qarashlar va va huquqiy kategoriyalar hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga oid masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning formal yuridik, tizimli va funksional tahlil, kuzatish, tarixiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat va davlat hayotidagi rolini oshirish uchun ularning huquqiy maqomini Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi zarurligi asoslantirilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida oliy yuridik ta'lim muassasalarida "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqi" fani o'qitilishi zarurligi asoslantirildi;

nodavlat notijorat tashkilotlariga grant loyihasining sifatli, o'z vaqtida amalga oshirilishi va natijalarning monitoring qilinishida amaliy yordam berish hamda hamkor tashkilotlarning ishini muvofiqlashtirib borish uchun mas'ullik "Milliy hamkor"ga yuklatilishi zarurligi asoslantirib berilgan;

fuqarolik jamiyatining rivojlanish holati va tendensiyalarini kuzatib borish imkoniyatini beradigan elektron portal bazasida ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning yangi zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

elektron jamoatchilik nazoratini amalga oshirish istiqbollari tahlil qilish asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda elektron portalga joylashtirib borilishi talab etiladigan masalalar aniq belgilanishi lozimligi asoslab berilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar uchun tanlovlarning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda keng jamoatchilikning taklif va mulohazalarini inobatga olish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlangan XIII bobida nodavlat notijorat tashkilotlari institutining huquqiy maqomi (72-modda) mustahkamlanishi zarurligi asoslantirilgan;

Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda ijtimoiy-huquqiy davlatni shakllantirish sharoitida jamiyat hayotida nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati, rolini oshirishga qaratilgan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – 2030" konsepsiyasi ishlab chiqildi;

nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiati, xususiyatlari, yetarlicha aks ettirilmaganligi bois "nodavlat notijorat tashkiloti" fenomenining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, ilmiy va amaliy qo'llash uchun taklif etildi;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga yo'naltirilgan qonunchilik bazasi tahlil etilib, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasi ilmiy izohlab berildi;

davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar uchun e'lon qilingan tanlovlarga taqdim etilgan loyihalarni baholash jarayonlarining shaffof va sog'lom raqobat muhitida o'tish mezonlari ishlab chiqildi;

nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida oliy ta'lim muassasalarida "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqi" fani dasturi (sillabusi) ishlab chiqildi;

elektron jamoatchilik nazoratini amalga oshirish istiqbollarini tahlil qilish asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda elektron portalga joylashtirib borilishi talab etiladigan masalalar ishlab chiqildi;

nodavlat notijorat tashkilotlari nomidan sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashga qaratilgan O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari assotsiatsiyasi tarkibidagi "Ekspertlar guruhi" nizomi ishlab chiqildi;

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarining o'zini o'zi boshqarish tizimini joriy qilish va rivojlantirish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilingan, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan nodavlat notijorat tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Konstitutsiyaviy huquq", "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqi", "Konstitutsiyaviy huquqning dolzarb ilmiy-amaliy muammolari" fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarning amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

nodavlat notijorat tashkilotlari institutining jamiyat va davlat hayotidagi rolini oshirish uchun ularning huquqiy maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi zarurligiga oid taklif Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi, 72-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 4-maydagi 02/6-09-19-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi nodavlat notijorat tashkilotlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomiga ega bo'lishi va ularning faoliyatini tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Oliy yuridik ta'lim muassalari talabalari uchun "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqi" fani o'qitilishi zarurligiga oid taklif taklif o'quv rejasi hamda "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqi" moduli dasturini ishlab chiqishda inobatga olingan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2023-yil 5-yanvardagi dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi yuridik kadrlarni tayyorlashda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslariga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga xizmat qilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlariga grant loyihasining sifatli, o'z vaqtida amalga oshirilishi va natijalarning monitoring qilinishida amaliy yordam berish hamda hamkor tashkilotlarning ishini muvofiqlashtirib borish uchun mas'ullik Milliy hamkorga yuklatilishi zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyundagi 328-son qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro grant loyihalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomning 11 va 12-bandlarini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 25-avgustdagi 12/21-58-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi grant loyihasini amalga oshirishda NNT va davlat organlarining samarali hamkorligini ta'minlashga xizmat qilgan;

fuqarolik jamiyatining rivojlanish holati va tendensiyalarini kuzatib borish imkoniyatini beradigan elektron portal bazasida ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning yangi zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 208-son qarorining 2-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'limining 2022-yil 16-dekabrda 33/1-576-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi raqamli texnologiyalarni keng jalb etgan holda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada shaffoflashtirishga xizmat qilgan;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda elektron portalga joylashtirib borilishi talab etiladigan masalalar aniq belgilanishi lozimligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 208-son qarorining 3-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'limining 2022-yil 16-dekabrda 33/1-576-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar uchun tanlovlarning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda keng jamoatchilikning taklif va mulohazalarini inobatga olish zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi 192-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 5-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 15-maydagi 12-15-12-son dalolatnomasi) Mazkur taklifning amalga oshirilishi nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta (14 ta respublika va 4 ta xorijiy nashrlarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 233 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati talqinining nazariy-metodologik jihatlari**” deb nomlanib, unda olimlar va yetakchi huquqiy maktablar doktrinal qarashlari asosida nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati, insoniyat tarixini davrlashtirish asosida nodavlat notijorat tashkilotlari shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, mazkur fenomen faoliyatiga oid huquqiy asoslarning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

Muallif tomonidan A.Forobiy, G.Gegel, T.Gobbs, X.Odilqoriyev kabi olimlarning fuqarolarning jamoat birlashmalariga uyushish huquqining nazariy-metodologik jihatlari tadqiq etilib, fuqarolarning jamoat birlashmalariga uyushish huquqi bu insonning tabiiy instinkti hisoblanadi va ushbu jarayonda insonlarning mushtarak maqsadlari va sa’y-harakatlarni birlashtirish va insoniyat sivilizatsiyasining asosiy omili hisoblangan kommunikatsiyani qaror toptirish zaruriyatidan kelib chiqadi, degan yondashuvni ilgari suradi.

Tadqiqotchi “fuqarolik jamiyati institutlari” institutining quyidagi mualliflik ta’rifini ilgari suradi: “Fuqarolik jamiyati institutlari – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va barcha nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali natijalarga erishishni ta’minlovchi o‘zini o‘zi boshqaruvchi demokratik institutlardir”.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “fuqarolik jamiyati institutlari” va “nodavlat notijorat tashkilotlari” institutlariga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Tadqiqotchi fikricha, mazkur rahbariy va metodologik ahamiyatga molik **konstitutsiyaviy qoidalar** asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizning butun qonunchilik tizimi modernizatsiya qilinadi. Ushbu jarayonda NNTlar faoliyatini tartibga solishga yo‘naltirilgan qonunchilik hujjatlarida ularning huquqiy maqomini mustahkamlovchi, faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga jiddiy hamda alohida mas’uliyat bilan yondashish lozim bo‘ladi.

Tadqiqotchi tomonidan Albert Eberxard Fridrix Sheffle tomonidan yaratilgan

“aralash iqtisodiyot” nazariyasi, shu bilan birga, Yevropa, orkeanorti, MDH davlatlari olimlarining “uchinchi sektor” fenomeniga oid ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilinadi.

Muallif fikricha, “aralash iqtisodiyot” nazariyasi ishlab chiqilgan davrda ijtimoiy munosabatlarning markazida davlat turgan va ushbu nazariya bugungi kun talablariga javob bermaydi. Hozirda odatiy jamiyatning o‘rniga “virtual jamiyat” yoki “axborot jamiyati” tushunchalari ishlatilayotganligi, xalqaro munosabatlarda davlatlar ustunligidan voz kechish va inson huquqlariga ustunlik berish maqsadida “global fuqarolik jamiyati” tushunchalarining qo‘llanilishi ham jamiyatni 3 ta sektorga bo‘lish nisbiy ekanligini anglatadi.

Tadqiqotchi tomonidan fuqarolik jamiyatini ilmiy-nazariy o‘rganuvchi, uning rivojlanishini doimiy tahlil qilib boruvchi tahliliy va ilmiy-o‘quv laboratoriyalarini (aql markazi) tashkil etish ishlarini jadallashtirish hamda ularning Tahliliy markazlar xalqaro reytingida ishtirokini ta‘minlash zarurligi bo‘yicha qarash ilgari suriladi.

Xorijlik L.Salomon, M. Karnea, Aleks de Tokvil, D.Devid va D. Djeri qarashlari, A. Smitning “Mehnat jamiyati” nazariyasi, shuningdek, X.Odilqoriyev, Sh.Yakubov, Ya.Ollamov, Dj.Shirinov va D.Xolmanova kabi yurtimiz olimlarining fuqarolik jamiyati institutlari, uyushish huquqi va “an’anaviy jamiyat” kabi institutlar tadqiq etilib, ularning nodavlat sektor vujudga kelishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi uyushish huquqining hosilasi sifatida muayyan mushtarak maqsad va muddaolarga ega shaxslarning birlashmasi “ma’lum yetuk bosqichi”ga yetgandan so‘nggina nodavlat notijorat tashkilotlari instituti vujudga keladi va inson taraqqiyotining eng muhim omili hisoblangan kommunikatsiyaga xizmat qilgan degan qarashni ilgari suradi.

O‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, jamoatchilikdan (jami 186 ta ishtirokchi) “NNTlarini bilasizmi?” deb so‘ralganida ishtirokchilarning 62 % (116) “ha” deb javob bergan bo‘lsa, 38 % (70) ular haqida ma’lumotga egamasligi, biroq eshitganligi haqida bildirganligidan kelib chiqib, tadqiqotchi so‘rovda qatnashganlarning qariyb 1/3 qismi mazkur institutning asosiy faoliyatidan bexabar” degan yondashuvni ilgari suradi.

Muallifning fikricha, bunga asosiy sabab sifatida birinchidan, aksariyat rivojlangan davlatlarda standart sifatida qabul qilingan “uchinchi sektor” atamasi, milliy qonunchilik hujjatlarida va amaliyotda “fuqarolik jamiyati institutlari”, “jamoat tashkilotlari”, “jamoat birlashmalari”, “nodavlat sektor” kabi turlicha tarzda qo‘llanilganligi va ularning o‘zaro farqi hamda o‘xshash jihatlari aniq ajratib ko‘rsatilmaganligi, ikkinchidan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda davlat fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatidan to‘liq foydalana olmayotganligini keltirib o‘tadi.

Tadqiqotchi tomonidan B.Latipov, S.I. Omonfonvan, V.Xuxlina, S.A.Bunin va A.A.Malayevlar kabi olimlar fikrlari tadqiq qilingan holda Yangi O‘zbekiston sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlarining funksiyalarini quyidagicha umumlashtirishni taklif etadi: *integratsiya, jamoatchilik nazorati, targ‘ibot, safarbarlik funksiyalari.*

BMTning Ustavi, Yevropa Kengashi hujjatlarida aks etgan xalqaro standartlarda, milliy qonunchilik hujjatlarida, shuningdek, L.Solomon, X.Anxeyer, S. Sokolovski, M.Lyons, X. Odilqoriyev, Sh.Yakubov, Sh.Nazarov kabi olimlarning qarashlaridagi “nodavlat notijorat tashkiloti” atamasi tahlil etilib, quyidagi mualliflik ta’rifi ilgari surilgan: “Nodavlat notijorat tashkiloti bu – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkiloti”.

Tadqiqotchi tomonidan xalqaro huquqiy standartlar va rivojlangan davlatlar tajribasi, shuningdek bir qator olimlar (L.Salomon, Z.Anxayer, Ye.A.Zlobina, B.Latipov) qarashlari asosida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining prinsiplarini tahlil qilib, o‘z yondashuvini ilgari suradi.

So‘nggi yillarda “Uchinchi sektor”ning jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish bo‘yicha tendensiyalarga oid yirik tadqiqotlarni (A.Bax-Mortensen, B.Lang va P. Montgomeri, J.Xan, K.Xalselar, J. Bostok, R.Briz, R.Ridley-Braff va P.Krouser, J.Teyser va X. Liyang) tahlil qilgan holda, raqamli bozor sharoitida ijtimoiy jihatdan nochor qatlamni iqtisodiy va ijtimoiy muhofaza qilish majburiyatini NNTlari o‘z zimmasiga olishi hukumat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi, degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi tomonidan T. Devis, T. Tved, P. Uillets, A. Kuruvila, V. Eberveyn, B. Reynaldum, V. Tessur, Ye. G.Tarxanova, X.Odilqoriyev, Sh.Yakubov kabi olimlarning nodavlat notijorat tashkilotlarining vujudga kelishiga oid qarashlari tadqiq etilib, individlarni birlashishga undovchi kuch, bu ularning umumiy manfaatlaridir degan yondashuv ilgari surilgan. Unga ko‘ra, jamiyatga birlashgan insonlarning manfaatlari ijtimoiy guruhning manfaatlariga aylanadi. Albatta, bir individ muayyan ijtimoiy guruh a‘zosi sifatida boshqa ijtimoiy guruhlarning ham a‘zosi bo‘lishiga to‘siq qo‘yilishi mumkin emas, degan qoida nodavlat notijorat tashkilotlarning eng muhim prinsipiga aylangan degan fikrni ilgari suradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, “jamoat tashkiloti” atamasi O‘zbekiston Respublikasining 22 ta normativ-huquqiy hujjatlarida, 200 dan ortiq holatda “nodavlat notijorat tashkilotlari” tarzida qo‘llanilgan. Shuningdek, 2023-yil fevral oyi holatiga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarida qo‘llanilgan bo‘lib, ularning 20 tasi kodeks va qonunlar, 25 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 13 tasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda 4 tasi idoraviy-me‘yoriy hujjatlardir.

Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining evolyutsiyasi va rivojlanish tendensiyalari quyidagi davrlar asosida tadqiq etilgan: Ibtidoiy urug‘chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (milodiy IV asrlargacha), Ilk O‘rta asrlar davri (V asrdan – VIII asr oxirigacha), Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri (XIX asr o‘rtalari, podsho Rossiyasi bosqini davridan to 1917-yil Oktyabr davlat to‘ntarishigacha), Sovetlar davri

(1917-1991-yillar).

Tadqiqotchi “Avesto”da keltirilgan fuqarolik jamiyat institutlari shakllanishi va rivojlanishiga oid fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi yondashuvni ilgari suradi: birinchidan, aholi davlat boshqaruvida faol qatnashgan; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati belgisi sifatida aytish mumkinki, insonlar umumiy ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullangan; uchinchidan, xotin-qizlar va erkaklar teng xuquqqa ega bo‘lgan; ommaviy manfaatga oid masalalar Oqsoqollar Kengashida ko‘rilgan.

Ilk O‘rta asrlar davrining o‘ziga xos xususiyati sifatida shaxslarning muayyan mol-mulkidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi va ilmiy muassasalarga xayriya ishlari uchun ajratish tizimi (“Vaqf”) joriy etilishi keltirib o‘tilgan.

Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davrida taraqqiyparvarlarning sa‘y-harakatlari bilan ta‘lim, ma‘rifat, madaniyat, san‘at, xayriya sohalarida ziyolilar harakati (1917-yilda “Klub islomiya”, Qo‘qonda “Mirvajul islom”, Andijonda “Ozod xalq”, Kattaqo‘rg‘onda “Ravnaqul islom”, Xo‘jandda “Muayyan at-tolibiy” kabi tashkilotlar tashkil etildi. Shulardan “Sho‘roi islomiya”) sifatida siyosiy maydonga chiqqan boshlaganligini anglatadi.

Tadqiqotchining fikricha, Sobiq Ittifoq davrida KPSS sovet siyosiy tizimining yadrosi va yo‘naltiruvchi kuchi sifatida e‘tirof etilib, amalda davlat mexanizmini harakatga keltiruvchi kuchga aylangan.

Muallif, L.Salomon va S. Sokolovski, J.Xan, T.D.Matveeva Yu.V.Botnev, Sh.Nazarov kabi olimlarning nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy missiyasini aniqlashga oid qarashlarini tahlil qilib, yondashuvni davlat instituti funksiyalaridan kelib chiqib emas, balki inson huquqlari, manfaatlari, ehtiyojlari rakursidan kelib chiqib tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi va mazkur fenomenning asosiy missiyasi shaxsning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va unga ko‘maklashish deb hisoblaydi.

Ko‘plab olimlar tomonidan bildirilgan fikrga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkilotning asosiy faoliyati bu uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlarga mos keladigan va ta‘sis hujjatlarida ko‘rsatilgan faoliyat degan yondashuv haqiqatdan yiroq. Mazkur chegaralash bugungi kunda turli geosiyosiy mojarolar yoki pandemiya kabi kulfatlar sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlari salohiyatidan maqsadli foydalanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini ta‘sis hujjatlari bilan chegaralashga olib keladi.

Dissertant fikricha, jamiyat va davlat ehtiyojidan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini ta‘sis hujjatlari bilan chegaralash emas, balki ijtimoiy foydalilik mezonidan kelib chiqib erkinlik berish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi qonunchilikka nodavlat notijorat tashkiloti qonun bilan taqiqlanmagan hamda o‘zining ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq bo‘lgan bir yoki bir nechta faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkinligi haqidagi normani kiritish lozim deb hisoblaydi.

Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, 1991-yilda mamlakatda hammasi bo‘lib 100 ta NNT faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, O‘zbekistonda jami ro‘yxatdan o‘tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning hisobga olingan bo‘linmalarining soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 10 462 ta, 2023-yil 27-yanvar holatiga ko‘ra 8 922 ta bo‘lib

qolmoqda. Shundan 671 tasi respublika darajasidagi, 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblanadi. 2022-yilda 301 ta nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati tugatilgan bo'lsa, 382 tasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Tadqiqotchi fikricha, so'nggi 3 yil davomida nodavlat notijorat tashkilotlarining soni kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 337 mln aholi yashaydigan AQSH da bugungi kunda 1,4 mln NNT faoliyat yuritib, har 240 nafar aholiga 1 ta NNT to'g'ri keladi. Bugungi kunda 67 mln aholi bor Fransiyada 1,2 mln NNT faoliyat yuritadi. Ya'ni, bir NNTga 55 nafar aholi to'g'ri keladi. 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, 51 mlndan aholi yashaydigan Janubiy Koreyada 60 mingdan ortiq NNT faoliyat ko'rsatadi. Bitta NNT ga 772 nafar aholi to'g'ri kelishini va aholining 4,2 foizi ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

Muallif, nodavlat notijorat tashkilotlar sohasida mamlakatimizda amalga oshirilgan qonunchilik islohotlarini rivojlanish davri va xususiyatlarini tahlil qilgan holda ushbu jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratishni taklif etadi: Birinchi bosqich 1991-yildan 2010-yilgacha, ikkinchi bosqich 2010-yildan 2017-yilgacha, uchinchi bosqich 2017-yildan hozirga qadar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat birlashmalariga a'zolik masalalarida ixtiyoriylik prinsipiga asoslanish konstitutsiyaviy darajada belgilanmaganligi ko'rsatilgan holda, ixtiyoriylik prinsipi faqat kasaba uyushmasiga a'zolik masalasida bayon qilingan (73-modda). Tadqiqotchining fikricha, amaliyotda ushbu sohada yuz bergan holatlar va NNTlariga berilayotgan e'tiborni hisobga olgan holda bunday muhim prinsipni konstitutsiyaviy norma darajasida nodavlat notijorat tashkilotlariga ixtiyoriy a'zolikni belgilash talab qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni huquqiy tartibga solish masalalari**» deb nomlanib, unda nodavlat notijorat tashkilotini ta'ris etish, uning tashkiliy-huquqiy shakllari, uni davlat ro'yxatidan o'tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi, NNT tashkiliy-huquqiy asoslari bo'yicha huquqshunos olimlar D. Xolmanova va J Shirinovlarning fikrlarini tadqiq etib, garchi nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblansada, lekin uni ta'ris etish jarayoni ham mazkur nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy asoslarining tarkibiy qismi hisoblanadi, degan yondashuvni ilgari suradi.

Dissertant tomonidan so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkil etilishi va faoliyatini yuritishda davlat ta'sirini minimal darajaga tushirish tendensiyasi kuzatilayotganligi asoslab berilgan. Mazkur nuqtayi nazarni so'nggi besh yillikda rivojlangan davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari (M.Lyons, L.Salomon, X.Anxayer, Sh.Yakubov) ham ko'rsatib berishini tahlil qilib, jahon tajribasida NNTlarining tashkiliy-huquqiy asosini shakllantirish va uni rivojlantirish siyosiy jihatdan emas, balki iqtisodiy jihatdan asoslanish tendensiyasi kuzatilayotganligini qayd etadi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 8 922 ta (2023-yil 1-yanvar holatiga) nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari quyidagicha:

- jamoat birlashmalari 7173 ta;
- muassasalar 713 ta;
- jamoat fondlari 555 ta;
- boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi NNTlar (uyushma, ittifoq) 481 ta.

NNTni tashkil etishda tashabbuskor guruh a'zolari quyidagi masalalarga e'tibor qaratishlari zarur:

birinchidan, notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari faoliyat maqsadlari, ishtirokchilar tarkibi, a'zolik prinsiplari, mol-mulkni shakllantirish va uni tasarruf etish, boshqaruv va nazorat tizimi, boshqa holatlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi;

ikkinchidan, NNT, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, adliya organlarida hududiy bo'ysunishi prinsipi asosida davlat ro'yxatidan o'tadi;

uchinchidan, NNT nomidagi "markaz", "jamiyat", "qo'mita" va shu kabi so'zlar NNT tashkiliy-huquqiy shakllari hisoblanmaydi, bu ularning faoliyatiga taalluqli bo'lgan "ekologik", "bolalar", "yoshlar" va hokazo tushunchalarga ham tegishlidir;

to'rtinchidan, NNT nomidagi "homiylilik" so'zi uning tashkiliy-huquqiy shaklini bildirmaydi, chunki u faqat homiylilik tashkilotiga taalluqli bo'lgan alohida maqomdir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan o'tkazilgan intervyularda ma'lum bo'ldiki, aksariyat nodavlat notijorat tashkilotlari ta'xis etilayotganda ta'xis hujjatlarini rasmiylashtirish, NNTning asosiy faoliyat yo'nalishlarini tanlash, ta'xischilarga oid talablarni bilishda qiynalishadi.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini yanada takomillashtirish stretegiyasini belgilash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (O'zNNTMA)ning o'rnini juda muhimligidan kelib chiqib, O'zNNTMA tomonidan NNT ni ta'xis etish bosqichida ta'xischilarga uslubiy va huquqiy ko'mak ko'rsatish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Muallif nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha sud amaliyoti tahlil qilinib, ma'muriy sudlar tomonidan ustav va boshqa ta'xis hujjatlaridagi kamchiliklar asosida uni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad qilinishi qonunga muvofiq degan xulosaga kelganligi qayd etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ma'muriy sud ishlarini yuritishda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga oid nizolarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga ustuvorlik berish o'rinli degan yondashuv ilgari surilgan.

Tadqiqotchi fikricha, nodavlat notijorat tashkilotlarini yagona tashabbuskor yoki asoschisi sifatida davlat tomonidan tashkil etilishi boshqa manfaatdor shaxslarning huquqlari cheklanishiga sabab bo'ladi.

Dissertant o'rganishlari asosida muayyan nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etishga oid 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi aniqlangan. Masalan, Savdo-sanoat palatasi nodavlat notijorat tashkiloti "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi qonun asosida tashkil etilgan.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi selektor yig‘ilishlari bayoni bilan tashkil etish amaliyoti ham mavjud.

Muallif bildirishicha, davlat tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari “gibrid”, “kvazidavlat”, “GoNGO”, “sun’iy” sifati bilan qo‘llanib kelinadi. Tadqiqotchi fikricha, amaliyotda mazkur turdagi NNTlarning ta‘sis hujjatlarini tuzishda adliya organlari huquqiy ko‘mak berib kelayotganligi va shu kabi holatlar nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etishda tenglik prinsipiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekistonda bugungi kunda faoliyat yuritayotgan GoNGO institutining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchidan, mazkur institut davlat tashabbusi (huquqiy yoki nohuquqiy shakl) bilan ta‘sis etiladi; **ikkinchidan**, shaklan davlatdan mustaqil bo‘lsa-da, ushbu institutlarning oliy rahbar organi (kollegial organi) a‘zolari ko‘p hollarda davlat organlari mansabdor shaxslaridan iborat bo‘ladi; **uchinchidan**, ushbu institutlar va davlat organlari o‘rtasida takrorlanuvchi funksiyalar paydo bo‘ladi; **to‘rtinchidan**, davlat tomonidan moliyalashtirilishi natijasid davlat organlari hisobdorlik vujudga keladi; **beshinchidan**, shu yo‘nalishda boshqa mustaqil nodavlat notijorat tashkiloti tuzish imkoniyati chegaralanishi natijasida mazkur institutning monopol pozitsiyasiga ega bo‘lishiga olib keladi.

Muallifning fikricha, O‘zbekiston Respublikasining “Savdo-sanoat palatasi to‘g‘risida”gi Qonun faqat bitta tashkilotning huquqiy maqomini belgilab berishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq “Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi”, “Normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida belgilangan “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida “NNT jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilishi”ga oid qoidalarga, shuningdek, NNTning konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatiga zid hisoblanadi.

Muallifning fikricha, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar yoki diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilik shu turdagi barcha subyektlarga teng imkoniyatlar yaratib berishidan kelib chiqib, “Savdo-sanoat palatalari to‘g‘risida”gi Qonun tarzida qabul qilish va tadbirkorlik faoliyati subyektlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlariga teng imkoniyat yaratish maqsadga muvofiq.

Dissertant, jamoat birlashmalarining huquqiy maqomidan kelib chiqqan holda ularning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

birinchidan, jamoat birlashmasini tuzish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan kamida 10 fuqarosining tashabbusi talab qilinadi, bunda chet el fuqarolari va fuqaroligi yo‘q shaxslar siyosiy partiyalardan tashqari har qanday jamoat birlashmalariga a‘zo bo‘lishlari mumkin; ikkinchidan, fuqarolar ixtiyoriy ravishda jamoat birlashmalarini tashkil etishlari va ularga a‘zo bo‘lishlari mumkin, lekin ustavlarda ko‘zda tutilgan holatlarda jamoaviy a‘zolar (mehnat jamoalari, jamoat kengashlari va boshqalar)

jamoat birlashmalarining yuridik shaxs hisoblanmaydigan jamoaviy a'zolari bo'lishlari mumkin; uchinchi, jamoat birlashmasining barcha a'zolari, jamoat birlashmasidagi maqomi va holatidan qat'i nazar, bir xil huquqqa ega hamda qarorlar qabul qilishda va mol-mulkni boshqarishda bir xil majburiyatlarga egadirlar; to'rtinchi, jamoat birlashmalari ishtirokchilarining kirish va a'zolik badallarini to'lashlari majburiy talab hisoblanmaydi, fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatidagi ishtiroki va a'zolik badalining to'lanishi uning huquqlarini cheklash yoki ustunlik o'rnatish uchun asos bo'la olmaydi.

Muallif fikricha, "jamoat fondi" ta'rifidan kelib chiqqan holda ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: **birinchi**, ular notijorat tashkilotlariga mansub, ammo a'zolik tashkilotlari hisoblanmaydi; **ikkinchi**, ham jismoniy va (yoki) ham yuridik shaxslar tomonidan ta'sis etilishi mumkin; **uchinchi**, ustav maqsadlarini amalga oshirish uchun mol-mulkklarini shakllantirishlari shart; **to'rtinchi**, muassislar tomonidan jamoat fondiga berilgan mol-mulk fondning mol-mulki hisoblanadi va uning ustavida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi, u ta'sischi o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas va garov yoki majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning boshqa usuli sifatida foydalanilishi, shuningdek kreditlar berish uchun foydalanilishi mumkin emas; **beshinchi**, jamoat fondi pul mablag'lari va boshqa mol-mulkklaridan foydalanilishi to'g'risida har yillik hisobotini e'lon qilishi shart va har yili o'z faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi; **oltinchi**, ta'sischi fondning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, fond esa ta'sischi larning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi; **yettinchi**, fondni ta'sischi larning qarori bo'yicha tugatib bo'lmaydi, bunday huquqqa manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq faqat sud egadir; **sakkizinchi**, qonunchilik fondga aloqador shaxslar bilan bitimlar fondga aloqador bo'lmagan shaxslar bilan bo'lganidagiga nisbatan bir muncha qulay shartlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ularni tuzishni man qiladi

Dissertant tomonidan A.Najam, A.Zimmer, T. Brandsen, V Pestoff, S. Filips, S. Smit, Sh.Yakubov, D.Xolmanova, Dj.Shirinov NNTlari tashkiliy-huquqiy shakllari masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlil qilinib, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, fuqarolarning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish, fuqarolarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, nizolarni hal qilish, yuridik yordam ko'rsatish, shuningdek xayriya yordamlarini ko'rsatish va boshqa maqsadlarga erishishda davlat NNTlari bilan ijtimoiy sherik sifatida teng munosabatlarga kirishayotganligi ko'rsatib o'tiladi.

Dissertant, nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakllari deganda, umumiy huquqiy nazariyadan kelib chiqqan holda normativ-huquqiy hujjatlar bilan NNTning faoliyatini tartibga solish maqsadida ular rioya qilishlari zarur bo'lgan tashkiliy va huquqiy shartlar tizimi degan ta'rifni mustahkamlashni taklif etadi.

Muallif qayd etishicha, qonunchilik darajasida NNTlarining tashkiliy-huquqiy shakllari asosan MDH davlatlarida uchrashi va tashkiliy-huquqiy shakl asosida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga "chegara" belgilash mazkur

institut faoliyati erkinligini cheklaydi. Ushbu nuqtayi nazarni L.Salomon, X.Anxayer, N.Kollek tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi fikricha, davlat xizmatlari markazlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilib kelinayotgan tijorat tashkilotlarining birlashmalari nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy tabiatiga mos tushadi.

Shuningdek, qonun hujjatlarida bir vaqtning o'zida ham yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shuningdek o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida tuzilgan a'zolikka asoslangan yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli nazarda tutilmagan. Bu esa, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida a'zo bo'lish orqali birlashishlarida qiyinchiliklar yuzaga keltirmoqda. Amaliyotda esa, ham yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shuningdek o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida tuzilgan a'zolikka asoslangan yuridik shaxs tuzilmoqda.

Muallif, qonun hujjatlariga tijorat tashkilotlarining birlashmalarini nodavlat notijorat tashkiloti shakliga kiritish hamda uyushmalar (ittifoqlar) tushunchasini kengaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taklif qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Davlat ro'yxatdan o'tkazishda nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakllari o'rtasidagi farqlar, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha taqdim qilingan arizalarni ko'rib chiqish muddatlari, ta'sisчилarga qo'yilgan talablar, davlat boji miqdori va boshqalardan iborat.

Tadqiqotchi tomonidan huquqshunos olimlar L.Xvan va J.N.Nematovlarning ma'muriy tartib-taomillar bo'yicha tadqiqotlari tahlil etilib, nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror bo'yicha "tekshirish prinsipi", arizadagi kamchiliklarni to'g'rilash uchun arizachiga imkoniyat va muddat berish, NNTga tegishli bo'lgan barcha holatlar bo'yicha o'z fikrini bildirish imkoniyatini taqdim etish, NNTga qonun hujjatlariga muvofiq zarur yordam ko'rsatilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Muallif NNTni ro'yxatdan o'tkazish rad etilganligi ustidan sudlarga shikoyat qilinishi bo'yicha quyidagi tartibni taklif etadi:

xalqaro, respublika, hududlararo nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonasi va filialini ro'yxatdan o'tkazish rad etilganda – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga;

boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish rad etilganda – tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy ishlar bo'yicha sudi, ma'muriy ishlar bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga.

Muallif ta'kidlashicha, NNT ta'sisчилari yoki tashabbuskorlari "E-ngo" platformasi orqali Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha jarayon qaysi bosqichida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotni real vaqt rejimida olib turish tizimini joriy etishni taklif qiladi. Bu ma'muriy tartib-taomillarning muddatlari buzilishining oldini olish bilan bir qatorda manfaatdor

shaxs ma'muriy hujjat qabul qilish bo'yicha jarayonning shaffoflashishiga olib keladi.

NNTni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza rad etilgan holda nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'langan davlat bojini uch oy o'tgach inobatga olmaslik va qaytarib bermaslik to'g'risida Qonun osti hujjat bo'lgan Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 27-bandidagi qoida "Davlat boji to'g'risida"gi qonun va qonunchilikdagi shaxslarning huquqlariga ziddir.

Tadqiqotchi fikricha, adliya organlari tomonidan davlat boji nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun emas, balki nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun undirilmoqda.

Yuridik shaxsning nomiga qo'yilgan talablar "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonunda to'liq va har tomonlama inobatga olingan holda aks etgan. Shunga ko'ra, ushbu qonunda qo'yilgan talablarni NNTga nisbatan ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotchi, adliya organlari tomonidan qoidalarsiz sport turlari federatsiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda "fuqarolarning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa" jumlasini yuzaga keltirayotgan noaniqliklardan kelib chiqib, turlicha talqin qilish holatlarini yuzaga keltirmaslik bo'yicha aniq mezonlar belgilanishi zarur degan yondashuvni ilgari suradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tartib-taomillari**" deb nomlanib, unda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini (maqsadini) amalga oshirishni huquqiy tartibga solish, uning faoliyatini moliyaviy ta'minlash masalalari, uning faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan ushbu bob doirasida so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini liberallashtirishda asosiy e'tibor ularning tashkil etilishi va faoliyatini yuritishda davlat ta'sirini minimal darajaga tushirish tendensiyasi kuzatilayotganligi asoslab berilgan.

Muallif tomonidan NNTlar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga oid tadqiqotlar (D.Mullins va V.Miligan, K.A. Cherepov, Sh.Yakubov, K. Anxayer, S. Sokolovski, S. Topler) tahlil qilish asnosida davlat va NNT hamkorligini 4 ta modelga ("Bog'bon modeli", "Sheriklik modeli", "Ota-ona modeli", "Egiluvchan model") ajratish taklif etiladi.

Dissertant fikricha, nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida xabardor qilish, chetdan pul mablag'larini olishni huquqiy tartibga solish bo'yicha ishlarni liberallashtirish maqsadida "Yangi O'zbekistonda Fuqarolik jamiyati – 2030" konsepsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlari haqida xabardor qilish tartibi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan bo'lsa-da, nodavlat notijorat tashkiloti sohasida ikkita ma'muriy reglamentning biri

Vazirlik tomonidan, biri Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi tizimlilik jihatdan ham, ma'muriy-tartib taomillarda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini teng ta'minlash jihatdan ham, raqamli tadbirlarni tashkil etish nuqtayi nazaridan ham qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

2021-yilda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash hajmi davlat tomonidan 2020-yilga nisbatan 2 baravarga oshirilib, 75,8 mlrd. so'mga yetkazildi.

Muallif, D. Lyuis, N. Kanji va N. Temudo kabi olimlarning tadbirkorlik subyektlari uyushmalarining – BONGO (Business-organized NGOs) huquqiy tabiatini tadqiq etilib, ushbu birlashmalar nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblanishi zarur deb hisoblaydi.

Muallif fikricha, Nodavlat notijorat tashkilotlarining o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlari haqida xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomda mazkur tartib-taomillarning predmeti bo'lmagan hamda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga (Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, agar ularga qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish yoki ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha vakolatlar berilgan bo'lsa, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin) zid bo'lgan "Xabarnomani ko'rib chiqish tartibi" (3-bob) belgilangan. Shunga ko'ra, mazkur bobni bekor qilish taklif etiladi.

O'tkazilgan so'rovda "*Nodavlat notijorat tashkilotingizni moliyalashtirish manbasi haqida ma'lumot bering*" deb so'ralganida, respondentlarning **31** foizi – "*Respublika byudjeti - grantlar va subsidiyalardan mablag' olamiz*" deb; **20** foizi "*viloyat byudjeti - mulkni imtiyozli (yoki beg'araz) ijaraga berish, subsidiyalar va grantlardan*" deb; **22** foizi – "*parlament komissiyasi yoki boshqa respublika (tashkilotlari) grantlari va xorijiy fondlar (tashkilotlar) grantlaridan*" deb; **15** foizi "*a'zolik badallari*" deb; **12** foizi – "*yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'laridan*" deb javob berishgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlarining aksariyat tadbirlari elektron tizimlarda va onlayn o'tkazilmoqda. Lekin nodavlat notijorat tashkilotlarining o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlari haqida xabardor qilishning amaldagi tartibi mazkur obyektiv zaruriyatni inobatga olmagan. Shunga ko'ra tadqiqotchi, tadbir o'tkaziladigan ko'cha va uy, tadbir o'tkaziladigan kun va soatni oson o'zgartirish kiritish va onlayn tadbirlarni o'tkazishga imkon beradigan huquqiy mexanizm joriy etishni taklif etgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qonunchilikda yuridik shaxs hisoblanadigan alohida bo'linma to'g'risidagi nizomida qanday qoidalar bo'lishi kerakligi to'g'risida aniq normalar mavjud emas. Shunga ko'ra, bo'linmalari nizomida uning nomi, u o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud; tuzilmasi va rahbar organlari, rahbar organlarning vakolat doirasi va ularni shakllantirish tartibi, ularning vakolat muddatlari, doimiy asosda ishlaydigan rahbar organ joylashgan yer; mol-mulkni boshqarish borasidagi huquqlari; nodavlat notijorat tashkilotning ustavida qayd qilinmagan bo'linma faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda belgilangan boshqa qoidalarni kiritish taklif etilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlar bilan uyushtirilgan intervyulardan kelib chiqib, nazorat qiluvchi organlar (adliya, soliq, hisob palatasi va boshq.) tomonidan tekshiruvlar muddatlari buzilishi, tekshiruv va o'rganishlar ketma-ket va tizimsiz amalga oshirishi natijasida NNT o'z faoliyatini yuritishda qiyinchiliklar va to'siqlarga duch kelishayotganligi ta'kidlangan.

Muallif fikricha, tekshiruvlarning takrorlanishining oldini olish va ortiqcha tekshirish yukini kamaytirish maqsadida barcha nazorat qiluvchi organlar NNT dagi rejali nazorat tadbirlarini (o'rganish, monitoring va tekshirish) ro'yxatga oluvchi organ bilan "E-NGO" elektron platformasida muvofiqlashtirgan holda bir vaqtda amalga oshirishni joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchi fikricha, amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining kollegial rahbar organlari va Taftish komissiyasi faoliyati to'liq tartibga solinmaganligi NNT mol-mulkini boshqarishda turli nizoli masalalarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunida kollegial rahbar organlari va Taftish komissiyasining huquqiy maqomi tartibga solinishi zarurligi ta'kidlangan.

Soliq Kodeksining 58-moddasida notijorat tashkilotlariga daromad olish maqsadiga ega bo'lmaslik hamda daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaslik shartlarini qo'yilishi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuning 2-moddasida belgilangan mazkur tashkilotlarning huquqiy tabiatiga mos kelmaydi. Notijorat tashkilotlarda **umuman daromad olish maqsadiga ega bo'lmaslik degan ta'rifni qo'llash mumkin emas.** Shu sababli tadqiqotchi, mazkur tushunchani aniqlashda NNT huquqiy tabiatidan kelib chiqqan holda "daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining **asosiy maqsadi qilib olmaslik**" yondashuvini ilgari suradi.

Tadqiqotchi tahlillar asosida xalqaro ekspertlar, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining institutlari tomonidan keyingi vaqtlarda chet ellik shaxslardan pul mablag'lari va mol-mulk olinishini kelishish tartibi ko'plab tanqidlarga uchraganligini bayon qilgan. Shunga ko'ra, chet ellik shaxslardan pul mablag'lari va mol-mulk olinishini kelishishni pul mablag'lari va mol-mulk olish haqida xabardor qilishga o'zgartirish va mazkur jarayonni to'liq elektron shaklga o'tkazish taklif etilgan.

Tadqiqotchi NNT ni tugatish masalasini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilib, bir qator muammolarni keltirib o'tadi. Xususan, NNTni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan sud ko'pincha amaliyotda tugatuvchi etib davlat organlari xodimlarini tayinlashi, tugatish jarayoni NNT ta'sischi va rahbarlariga bog'liqligi (ularda mavjud bo'lgan muhr va shtamplar yo'qligi, mol-mulki to'g'risidagi, debitor va kreditor qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi, mavjud qarzdorliklarni to'lash manbalari yo'qligi va boshqalar) va aksariyat hollarda NNT tugatilayotgan paytda uning rahbari va kollegial organi mavjud bo'lmasligi kabi muammolarning yechimi bo'yicha takliflarni ilgari suradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida "Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishdagi ishtirokini kengaytirish" deb nomlanib, unda nodavlat notijorat tashkilotlarining BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o'rni, O'zbekistonda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda

nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini kengaytirishning zamonaviy tendensiyalari, nodavlat notijorat tashkilotlari orqali o'zini o'zi tartibga solish mexanizmini amalga oshirishning istiqbollari tahlil qilingan.

BRMga erishish davlatlar, xususi sektor, fuqarolik jamiyati institutlaridan kuch va sarmoya talab qiladi. Barqaror rivojlanishning ijtimoiy maqsadlariga erishishda, ayniqsa fuqarolik jamiyatining roli o'ta muhim sanalib, u bugungi kunda "uchinchi sektor" – ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy himoya, ya'ni ijtimoiy sohada mahalliy jamoalarning fuqarolik tashabbuslariga asoslanadi.

Dissertant fikricha, amaliyot, davlat sharhlari har doim ham mamlakatlardagi ishlarning haqiqiy holatini aks ettirmasligidan kelib chiqib, Inson huquqlari sohasida muqobil hisobot berish jarayonining asosiy maqsadi hisoboti ko'rib chiqilayotgan mamlakatda inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlashdan iborat degan yondashuv ilgari surilgan.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarning O'zbekiston Respublikasida bajarilishi bo'yicha bugungi kunga qadar jami **119 ta** xalqaro va milliy nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan muqobil ma'ruzalar BMTning tegishli qo'mitalariga topshirilgan. Shundan **19 tasi** O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib boruvchi NNT hisoblanadi. Tadqiqotchi fikricha, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari assotsiatsiyasi tarkibida tuzilgan "Ekspertlar guruhi"ga muqobil ma'ruzalarni tayyorlash metodikasini ishlab chiqish va NNTlarga doimiy ravishda ko'mak berish vazifasini yuklatish lozim.

Tadqiqotchi fikricha, qonun bilan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning 8 ta shakllari belgilangan bo'lsada, shundan 7 ta shaklining amalga oshirishning aniq mexanizmlari yoritilmagan. Shunga ko'ra, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun 2¹-moddasiga "**jamoatchilik kuzatuv komissiyasi**", "**jamoatchilik inspeksiyasi**" va "**jamoat inspektori**" institutlari kiritish taklif etiladi. Uning fikricha, "**Jamoat inspeksiyasi**" va "**jamoat inspektori**" institutlari kiritilishi natijasida davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida tekshiruvlar o'tkazish imkonini beradi.

D.Mur, E. Guseynov, S.Nemgirova, Sh. Yakubov, Ya. Allamov kabi olimlarning ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini kengaytirishga oid qarashlari tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarini nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish hamda jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodologiyalarini ishlab chiqish taklif etiladi.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, grant tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlarga qaraganda ko'proq ilmiy sohada uchraydi. O'zbekistonda grantga oid munosabatlar qisman tartibga solingan. O'zbekiston qonunchiligida grantlarning umumiy tushunchasi ham, muhim xususiyatlari ham belgilanmagan. Bugungi kunda grantlar xayriyalarning alohida bir turi sifatida shaxsiy mablag'lar hisobidan ham, davlat byudjeti hisobidan ham taqdim etilmoqda.

Tadqiqotchi fikricha, Oliy Majlisi huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi huquqiy maqomi qonunchilik hujjatlarida aniq belgilanmagan. Dissertant, mazkur

fondning huquqiy tabiatiga ko'ra, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondini davlat tashkiloti sifatida tashkil qilish lozim deb xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi tomonidan Parlament komissiyasi tomonidan pul mablag'lari ajratish bo'yicha faoliyati tahlil qilinib, mamlakatimizda yuksak texnologiyani rivojlantirish va yoshlarni tabiiy bilimlarga qiziqishini uyg'otish va bu yo'nalishda tizimli ishlar qilishni asosiy mezon sifatida belgilash taklif etilgan.

Maqsadsiz va noto'g'ri sarflangan **1 mlrd 118,5** mln so'mlik davlat subsidiyasi, **172,9** mln so'mlik ijtimoiy buyurtma, **238,9** mln so'mlik davlat granti mablag'lari monitoring natijalaridan kelib chiqib qaytarilgan.

Jamoat fondi faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan loyihalarni hamda hisobotlarni elektron raqamli imzolardan foydalangan holda elektron shaklda qabul qilish, hujjatlar aylanmasini elektron tarzda yuritish bo'yicha maxsus dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda parlament komissiyasi grant mablag'larining sarflanishi yuzasidan hisobotlarni qabul qilib oladi va o'zi monitoring qiladi.

Bugungi kunda AQSHda 50 foizdan ortiq aholi qatlami ko'ngillilik asosidagi ishlarda qatnashib keladi. Ko'ngillilar mehnatining moliyaviy ekvivalenti 5 300 mlrd dollardan oshadi. Yaponiyada "Minsey inn" xayriya yordami tizimi yaratilgan bo'lib, 3 300 dan ortiq volontyorlik markazlari faoliyat ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada volontyorlar markazi tashkil etilgan bo'lib, o'rta va yuqori sinf vakillari kambag'allikka qarshi kurashish yo'lida keng ravishda ijtimoiy ishlarga jalb qilingan. Germaniyada fuqarolar bir oy davomida o'zining 15 soatdan ortiq vaqtini ko'ngilli uyushma, loyiha va o'zaro yordam guruhlariga bag'ishlaydi. Mamlakatda 70 mingga yaqin notijorat tashkilotlari faoliyat yuritib, ularda volontyorlik huquqi asosida 2 milliondan ortiq fuqarolar ishlaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ko'magi sifatida ajratilgan grantlar, subsidiya va ijtimoiy buyurtma mablag'lari ishlatilishi hamda o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha "Openness of non-governmental non-profit organizations" – "Ochiqlik standarti"ni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotchi tomonidan R.Yakshilova, V. Davlyatov, D.Ashurov, S.Vasilyeva, I.Yershova, Ye.Parubin kabi olimlarning o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarning tashkiliy huquqiy asoslariga oid tadqiqot ishlari tahlil qilinib, o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlarga quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari surishni taklif etgan:

"O'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqish sohasi yoki ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozori yagonaligidan kelib chiqib yoxud professional faoliyat subyektlarining muayyan turini birlashtirgan, ixtiyoriy yoki majburiy a'zolikka asoslangan, uyushma (ittifoq) shaklidagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi nodavlat notijorat tashkilotdir".

Muallif fikricha, o'zini o'zi tartibga solish vakolati berilgan NNTning huquqiy maqomi qonun bilan belgilanishi masalaning yechimi hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining "O'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

XULOSA

“O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1.1. Konstitutsiyaviy huquq fanining ilmiy apparatiga oid nazariy qarashlarni yanada rivojlantirish maqsadida xalqaro tajriba va xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan yondashuvlardan kelib chiqqan holda, “Aralash iqtisodiyot” nazariyasiga muvofiq uchta sektor o‘rtasidagi nisbat tahlil etildi. Birinchi sektor – umumdavlat va munitsipal tashkilotlarini birlashtiradi. Ikkinchi sektor - faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko‘zlagan biznes subyektlarini birlashtiradi. “Uchinchi sektor” nodavlat notijorat tashkilotlaridan iborat. Mazkur qarashning asosiy mazmuni jamiyatning uzviy birligini anglatadi va “Konstitutsiyaviy huquq”ning ilmiy-kategorial apparatini yanada boyitishga xizmat qiladi.

1.2. Milliy va xalqaro huquqiy amaliyot, ilmiy-nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, “nodavlat notijorat tashkilotlari” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: **“Nodavlat notijorat tashkiloti bu – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, asosiy maqsadi ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirilgan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkiloti”**.

1.3. O‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlari institutining huquqiy va ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish asosida uning tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin: **“O‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilot”** deganda, *tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqish sohasi yoki ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozori yagonaligidan kelib chiqib yoxud professional faoliyat subyektlarining muayyan turini birlashtirgan, ixtiyoriy yoki majburiy a‘zolikga asoslangan, uyushma (ittifoq) shaklidagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi nodavlat notijorat tashkilotdir”*.

1.4. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining prinsiplari bo‘yicha quyidagi yondashuv ilgari suriladi: **qonuniylik, ixtiyoriylik, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy foydalilik, ochiqlik va shaffoflik, erkinlik, ijobiy va konstruktiv yondashuv prinsiplari**.

1.5. Nodavlat notijorat tashkilotlari sohasida mamlakatimizda amalga oshirilgan qonunchilik islohotlarining rivojlanish davri va xususiyatlarini tahlil qilgan holda ushbu jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin asoslantiridi: Birinchi bosqich 1991-yildan 2010-yilgacha, ikkinchi bosqich 2010-yildan 2017-yilgacha, uchinchi bosqich 2017-yildan hozirga qadar deb davrlashtirish mumkin.

1.6. *“Davlat ijtimoiy buyurtmasi”* tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: *“Davlat ijtimoiy buyurtmasi bu – davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o‘rtasida shartnoma tuzish yo‘li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga*

molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idir".

1.7. Davlat va NNT hamkorligini quyidagi to'rtta modelga ajratish taklif etiladi: 1. "Bog'bon modeli"ga ko'ra, davlat NNTlarining ijtimoiy foydali faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, mazkur sohani rivojlantirishga oid umumiy davlat siyosatini muvofiqlashtirib boradi. 2. "Sheriklik modeli"ga ko'ra, davlat va nodavlat sektorning tenglik asosidagi muloqotiga asoslanadi. 3. "Ota-ona modeli" davlatning nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati ustidan total nazorati bilan tavsiflanadi. 4. "Egiluvchan model" davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining salohiyati va imkoniyatlaridan ichki va tashqi maqsadlari yo'lida o'zaro foydalanadi, agar davlat NNTdan real tahdidni sezsa uning imkoniyatlari qonun yo'li bilan cheklanadi.

1.8. Yangi O'zbekiston sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlarining funksiyalarini quyidagicha tasniflash taklif etiladi: *integratsiya, jamoatchilik nazorati, targ'ibot, safarbarlik funksiyalari*.

1.9. Bir vaqtning o'zida ham jismoniy, ham yuridik shaxslarnig ta'sischiligida ularning nodavlat notijorat tashkiloti bo'lgan ittifoqi "Uyushma" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berilgan: "Uyushma – *jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ularning umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shuningdek yuridik shaxslar o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish uchun ijtimoiy foydali maqsadlarda tuzilgan, a'zolikka asoslangan nodavlat notijorat tashkiloti*".

10. Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagicha tasniflandi:

nodavlat notijorat tashkilotlarini mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish;

nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

nodavlat notijorat tashkilotlariga moddiy yordam ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq imtiyozlar berish.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

2.1. "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasini quyidagi tahrirda bayon e'tish taklif qilinadi:

Fond tomonidan quyidagilar nazarda tutilgan har yilgi mol-mulkdan foydalanilishi to'g'risidagi hisobot uning faoliyati auditorlik tekshiruvidan o'tkazilgandan keyin o'n besh kun ichida, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmasdan tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi:

fond olgan ixtiyoriy xayriyalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

fondning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari (foydasi) to'g'risidagi ma'lumotlar;

boshqa kelib tushgan mablag'lar miqdori (turlari alohida ko'rsatilgan holda);

Fondga berilgan pul ko'rinishida bo'lmagan mol-mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar;

xarajatlar umumiy summasi, fond faoliyatining turlari bo'yicha va ma'muriy xarajatlar bo'yicha alohida ko'rsatilgan holda;

pul ko'rinishida bo'lmagan mol-mulklar tasarrufi bo'yicha ma'lumotlar.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tomonidan jamoat birlashmalariga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi shartligi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, shuningdek, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar yoki diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunlar shu turdagi barcha subyektlarga teng imkoniyatlar yaratishidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlariga teng imkoniyat yaratish maqsadida "Savdo-sanoat palatalari to'g'risida"gi Qonuni tarzida qabul qilish maqsadga muvofiq.

2.3. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga nodavlat notijorat tashkilotlarining kollegial rahbar organlari bo'yicha quyidagi mazmundagi normalarni kiritish taklif etiladi:

Kollegial rahbar organlari qarorlari ularning yig'ilishi bayoni shaklida rasmiylashtiriladi. Yig'ilish bayoni yig'ilish raisi va kotibi, shuningdek, yig'ilishda o'n va undan ortiq kishilar ishtirok etganda sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi.

Kollegial rahbar organlarning yig'ilishi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

yig'ilish o'tkaziladigan vaqt va joy;

yig'ilishda ovoz berish huquqiga ega ishtirokchilarning umumiy soni;

yig'ilishda qatnashgan ovoz berish huquqiga ega ishtirokchilarning soni;

yig'ilish raisi va kotibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

sanoq komissiyasi tarkibi (rahbar organ yig'ilishida o'n va undan ortiq kishilar ishtirok etganda);

ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar va ular bo'yicha ovoz berish yakunlari, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar.

Nodavlat notijorat tashkilotining ustavida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, kollegial rahbar organlari qarorlari yig'ilishlarni o'tkazmay (rahbar organ a'zolari birgalikda hozir bo'lmay) sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinishi mumkin. Bunday ovoz berish pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki uzatib beriladigan va qabul qilinadigan xabarlarining to'g'ri bo'lishini va ularning hujjatlar bilan tasdiqlanishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositasida hujjatlarni ayirboshlash yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.

Sirdan ovoz berish yo'li bilan qarorlar qabul qilishda tegishli rahbar organning barcha a'zolariga ovoz berish boshlangunga qadar oxirgi o'zgarishlari bilan kun tartibi, ovoz berishning tugash muddati xabar berilishi, shuningdek zarur axborot va materiallar bilan tanishib chiqishi imkoniyati ta'minlanishi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotining ustavida qaror qabul qilish uchun ko'proq ovozlari soni nazarda tutilmagan bo'lsa, kollegial rahbar organlarning yig'ilishi qarorlari, qoida tariqasida, mazkur yig'ilishda ovoz berish huquqiga ega ishtirokchilar umumiy sonining ko'pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi.

Kollegial rahbar organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda mazkur organlarda ovoz berish huquqiga ega shaxslarning o'rniga boshqa shaxslarning ishtiroki nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlarida bu haqida nazarda tutilgan holda va ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.4. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga nodavlat notijorat tashkilotlarining Taftish komissiyasi bo'yicha quyidagi mazmundagi normalarni kiritish taklif etiladi:

Nodavlat notijorat tashkilotining moliyaviy faoliyatini hamda pul mablag'lari to'g'ri sarflanishi va mol-mulkidan maqsadli foydalanilishini taftish komissiyasi tomonidan tekshirish har yili yoki ustavga ko'ra boshqa muddatlar davomida amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organ qaroriga binoan taftish komissiyasi tomonidan tekshirish ustavida nazarda tutilmagan muddatlar davomida ham amalga oshirilishi mumkin.

